



O‘ZBEKISTONDA TARIX FANI TA’LIMI MASALALARINING MUSTAQILLIK DAVRI TARIXSHUNOSLIGIDA YORITILISHI

Narmanov Feruz Asfandiyorovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda ta’lim tizimining rivojlanish bosqichida tarix ta’limi va diniy ta’lim tizimi va uning o‘qitilishi bilan bog‘liq jihatlar o‘rganilgan. Maqolada ham so‘nggi yillarda yurtimiz olimlari hamda tadqiqotchilari olib borgan ishlar tarixshunosligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Bosh vaqf boshqarmasi, tarix ta’limi, diniy fanlar, ta’lim rivoji, U.G‘afurov, ilmiy xodim, milliy istiqlol.

Аннотация: В данной статье изучаются аспекты, связанные с системой исторического образования и религиозного образования и его преподавания на этапе развития системы образования в Узбекистане. В статье также анализируется историография работ, выполненных учеными и исследователями нашей страны за последние годы.

Ключевые слова: кафедра общего фонда, историческое образование, религиозные науки, развитие образования, У. Гафуров, научный сотрудник, национальная независимость.

Abstract: In this article, aspects related to history education and religious education system and its teaching are studied at the stage of development of the education system in Uzbekistan. The article also analyzes the historiography of the works carried out by scientists and researchers of our country in recent years.

Keywords: General Foundation Department, history education, religious sciences, educational development, U.Gafurov, researcher, national independence.

KIRISH

Mustaqillik yillarida tarix fani va uning o‘qitilishiga doir masalalar O‘zbekistonda tarix fani tadqiqotlarining muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy izlanishlar va chop etilgan tadqiqot natijalarida o‘z ifodasini topdi. Aytish mumkinki, tarix faniga bo‘lgan munosabat respublikamizning ko‘plab yirik tarixchi olimlari tomonidan e‘tirof etilganidek, mutlaqo yangicha qarashlar va milliy istiqlol ruhida yaratila boshladi.

Istiqlol yillarida O‘zbekistonning sovet davri tarixi tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borildi. Sovet hokimiyati hukmronligining mafkuraviy siyosati va uning

madaniy, ijtimoiy hayotga ta'siri bilan bog'liq asarlar yaratildi. O'zbekistonda zamonaviy tarix fanida yangicha nazariy-metodolik yondoshuvlar asosida tarixiy masalalarni o'rganish mezonlari va tarixshunoslik tadqiqotlari yaratildi [16:207, 334].

Masalaning tarixshunoslik tahlili O'zbekistonda ta'lim rivojlanish bosqichlari va umuman ta'lim tarixiga bag'ishlangan tarixshunoslik tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Ammo tarix ta'limining mazkur ta'lim jarayonlaridagi holati masalasining umumiy xarakterda keltirib o'tilganligi mavzuning tarixshunoslik nuqtai nazaridan dolzarbligini ko'rsatib turadi. Tarixiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda mavjud tarixshunoslik asarlari tarix fani haqida birlamchi umumiy tasavvurga ega bo'lish uchun xizmat qiladi. Zero, tadqiq etilayotgan tarixiy muammoning tarixshunoslik zarurati shundan iboratki, mazkur tadqiqotga qadar yaratilgan ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar va boshqa ilmiy kitoblarni umumlashtirish, tizimlashtirish va natijada ularni mavzuning talab darajasidan kelib chiqqan holda qiyosiy tarixiy tahlil qilish imkonini beradi. Ya'ni, O'zbekistonda tarix fani va uning o'qitilishi va umuman ta'lim tizimining 1925-1991-yillar davomidagi holati haqidagi tadqiqotlarni yaratilgan davri va mazmunidan kelib chiqqan holda bir necha davriy guruhlariga ajratgan holda tahlil qilish mumkin.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot izlanishlari va nashr etilgan ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fani va uning o'qitilishiga doir tadqiqotlarni shartli ravishda davriy nuqtai nazardan uch guruhga ajratgan holda tahlil etish mumkin.

Birinchi guruh tadqiqotlari O'zbekiston respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab 1998-yilga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga olgan.

– birinchi bosqich. Shubhasiz, O'zbekistonda tarix fani o'qitilishining asosiy yo'nalishlarining o'zgarishi va uning mazmuni bilan bog'liq yangi davr sifatida tarixga kirdi. Mazkur bosqich O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlarni o'z ichiga olgan holda bunda sobiq sovet davri mafkurasidan xoli bo'lgan yangicha yondashuvlarning shakllana boshlaganligi bilan xarakterlanadi. Mazkur davr tarixiy bilimlarni o'qitishning mustaqillik ruhi olib kirilgan va sinfiylik jihatilari chekina boshlagan dastlabki bosqich bo'ldi.

MUHOKAMA

Dastlab M.M.Sagatova tomonidan XX-asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda tarix fani holati va uning sovet davri talablari asosida bosib o'tgan yo'li va uning aynan dastlabki davrlariga bag'ishlangan dissertatsion tadqiqoti yaratildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida shuningdek, O'zbekiston maorifchilarining istiqlool yo'lidagi kurashi va unda ma'rifatparvarlarning istiqlool yo'lida maorif taraqqiyoti uchun olib borgan kurashi, mustaqil mafkuraning shakllanishida ona tilining o'rni kabi masalalarini I.Y.Tursunov milliy istiqlool ruhida tadqiq etgan [13: 217].

Keyingi bosqich 1998-2017-yillar oralig'ida yaratilgan ilmiy asarlar va ilmiy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqich O'zbekistonda tarix fani va uning rivojidagi yangi bosqichning boshlanishi va tarix fanining belgilangan mustaqillik ruhi, milliy

qadriyatlarning qayta tiklanishidagi katta qadamlar tashlandi. Tarix faniga nisbatan xalq xotirasi, o‘tmish va moziy jarayonlari natijasi, bo‘lib o‘tgan tarixiylikni fuqarolarga haqqoniy yetkazish tarixni fan darajasiga ko‘tarishdagi bosqich sifatida tarixga kirdi. Tarixni fan sifatida o‘qish, o‘rganish, talqin etish va chuqur anglab yetish bevosita ilmiy tadqiqotlarning samarasi hisoblanadi. Faqat ilmiy-tadqiqotlar orqaligina bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni xolis tahlil qilish va mantiqiy tapqin etish, qiyosiy va tanqidiy solishtirish asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, tarixiy dunyoqarash asosida voqea-hodisalar, tarixiy jarayonlarga baho berish, tarix falsafasini anglab yetish imkoniyatlari yanada ortib bordi [9: 3].

Uchinchi bosqich esa 2017-yildan keyingi davrda tarix fani holati, tarix fanining o‘qitilishi masalalarini o‘z ichiga olgan tadqiqot natijalarini o‘zida aks ettirgan ishlardir. Mazkur bosqichda tarix faniga bo‘lgan e‘tiborda milliy ruh bilan o‘rganish masalalari ustuvorlik kasb etib bordi. Tarix bo‘yicha fan va ta‘lim integratsiyasini rivojlantirish O‘zbekistonda tinchlik va barqarorlik, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan siyosatning ahamiyatini ko‘rsatib beradigan va uni boshqalarga o‘rnak sifatida namoyon qila oladigan chuqur ilmiy asoslangan tadqiqotlarni yaratish zarurati tahlil qilindi [11].

Dastlab Turkiston o‘lkasi keyinchalik O‘zbekiston hududida ta‘lim tizimining rivojlanish bosqichlari, xususan, mustamlaka hukumatining ta‘limga munosabati, rus-tuzem maktablari, gimnaziya kabi ta‘limning kirib kelishi, sovet davri ta‘limi islom dini va mahalliy xalq qadriyatlariga qarshi g‘oyaviy kurash masalalari D.A.Alimova tomonidan tahlil etilgan [3: 396].

O‘zbekistonda madaniyat rivoji yo‘nalishlari va muammolarini ma‘lum bir geografik hudud doirasida tadqiq qilish an‘anasi mustaqillik davrida M.To‘raeva, N.Quvvatova, G.Xusainbekova, A.Bodirovlar tomonidan Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand viloyatlari misolida hukmron sovet davlatining madaniy hayotiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida viloyatlarda ta‘lim tizimi holati, sovet hokimiyatining mafkuraviy tazyiqlari natijasida yuzaga kelgan tarixiy jarayonlarning ta‘lim tizimiga ko‘rsatgan salbiy ta‘siri va oqibatlarini hududlar kesimida tahlil etishgan [12].

2018-yildan keyin e‘lon qilingan ayrim publitsistik xarakterdagi maqola va tezimlarda bugungi kunda tarix fani va uni o‘qitishning holati, tarix fani va uning jamiyat ma‘naviy rivojidadagi o‘rni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining har bir chiqishi, nutq va risolalarida keltirib o‘tilgan tarixiy xotiraga tayangan holda faxr va iftixorni yuksaltirish milliy o‘zlikni asrab qolishning asosiy omillari muhokama etildi [4: 154-159].

Ta‘limning tizimining asl manzarasiga aylangan bugungi kunda tarix darsiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarning oshishi, dars turlarining rang-barangligi, tarixiy manbalarga e‘tiborning kuchayishi, zamonaviy pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kundalik ehtiyojga aylanishi, ta‘lim jarayonida esa tarix fanini o‘qitish, unda milliy asosga tayanish, xalqimizning ma‘rifatparvarlik, bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik kabi an‘analari, andishalilik, iymon-insof, mehr-oqibat, or-nomus kabi fazilatlarini chuqur o‘rganish jihatlari N.Alieva tomonidan tahlil qilindi [2: 425-427].

O‘zbekiston Respublikasining hozirgi geografik viloyatlari misolida sovet davri ta’lim tizimining holati va ahvoli masalalariga doir alohida tadqiqotlar yaratildi [1].

Ushbu asarlarda tanlangan tadqiqot ob’ektining tarkibiy qismida tanlangan viloyatda kechgan sovet davri ta’lim jarayonlarining holati va ahvoli kabi jihatlari mustaqillik davri mohiyatidan kelib chiqqan holda tahlil etildi.

Alohida ma’lum biri oliy ta’lim muassasi tariga doir juda ko‘plab tadqiqotlar yaratildi. Mazkur tadqiqotlarni tahlil qilish va qiyosiy o‘rganish tadqiq etilayotgan davrda respublika bo‘yicha tarixchi kadrlar tayyorlash holatini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, respublikaning nufuzli va ilk oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan O‘zbekiston milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti [14: 84], Andijon davlat universiteti [10:460], Qarshi davlat universiteti [7] tarixiga bag‘ishlangan asarlar nashr etildi.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda tarix fani sohasida ilmiy izlanish va tadqiqot olib borish uchun yaratilgan keng sharoitlar natijasida respublikamizning ko‘pgina ilmiy tadqiqot muassasalari va oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tadqiqotchi va olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda ham mavzuning mazmun jihatdan ayrim qismlarini yoritib beruvchi asarlar yaratildi.

Xususan, tadqiqotchi S.M.Ergashev tomonidan olib borilgan tadqiqotda XX-asrning 20-yillarida Bosh vaqf boshqarmasi faoliyat o‘rganilishi bilan birga, O‘zbekiston maorif tizimining sovetlashtirilishi va kadrlar holati kabi jihatlar ham tahlil qilingan[5: 132]. Tadqiqotning asosiy xususiyati uning aynan 20-yillar bilan chegaralanganligi va eng asosiy jihat ta’limning sovet andozasi asosidagi tizimga o‘tishdagi dastlabki bosqich bo‘lganligi bilan ham xarakterlidir. Shuning bilan birga, tadqiqotchi D.T.Mamarasulovning tadqiqotida respublikaning nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Samarqand davlat universiteti tarixi va taraqqiyot bosqichlari tahlil qilingan bo‘lib, tarixchi kadrlar tayyorlanishida mazkur oliy o‘quv yurtining tutgan o‘rni va ahamiyati ham keltirib o‘tilgan [8: 151].

Shuningdek, mustaqillik davri tadqiqotlarida O‘zbekistonda diniy ta’lim tarixi, diniy ta’lim muassasalari faoliyati tarixini o‘rganish alohida yo‘nalish sifatida rivojlandi. Dastlab mustaqillik yillarida diniy ta’lim va umuman mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar R.Yusupov va A.Salmonovlar tomonidan olib borildi [17].

Tadqiqotchi Z.Xalilovanning tarixshunoslik yo‘nalishida amalga oshirilgan tadqiqotida ham diniy ta’lim tarixiga doir masalalar tahlil qilingan holda sovet hokimiyati yillarida O‘zbekistonning islom madaniyati rivojiga qo‘shgan hissassi islom ta’lim muassasalari misolida tadqiq qilindi [15].

2023-yilda esa U.G‘afurovning 1943-2003-yillarda diniy ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanishiga doir tadqiqoti amalga oshirildi. Tadqiqotda 1943-1991-yillarda din sohasidagi davlat siyosati va uning ta’lim tizimida aks etishi, madrasalardagi ta’lim jarayoni va fanlar mazmun-mohiyatidagi o‘zgarishlar, islom ta’lim muassasalarining diniy sohadagi malakali kadrlarni yetishtirishdagi o‘rni masalalari eng so‘nggi tarixiy ma’lumotlar asosida o‘rganildi [6].

XULOSA

Bir so‘z bilan aytganda, mustaqillik davrida O‘zbekistonning sovet hokimiyati hukmronligi yillarida ta‘lim tizimi va unda fanlarning o‘qitilishi tarixiga doir ilmiy adabiyotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish sovet davrini tadqiq etish tarixshunosligida yangi bosqichga ko‘tarildi. Shu bilan tadqiqot mavzularining kengligi, tanlangan tarixiy ilmiy obyektning aynan zamon bilan hamnafas tarzda yoritilishi tariximizni xolisona o‘rganishning muhim mezonlaridan biriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduraxmonova J.N. Sovet hokimiyatining O‘zbekiston ta‘lim sohasidagi qatag‘onlik siyosati (Samarqand, Surxandaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida 1925-1941): Tarix fan. nom. dis. avtoreferati. – Toshkent, 2011. — 54 b; Bodirov A. Samarqand viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1925-1941 yy). Tarix fan. falsafa dok. (PhD) diss...avtoref. – Toshkent, 2019. – 24 b.
2. Alieva, N. (2022). Tarix fanini o‘qitish haqida ayrim mulohazalar (2-bo‘limdan). Znachenie sifrovых texnologiy v izuchenii istorii Uzbekistana, 1(01), 425–427. <https://doi.org/10.47689/v1i01.13680>.
3. Alimova D.A. O‘zbekistonda ta‘limning rivojlanish tarixi va tarixshunosligi. Ocherklar. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 396 s.
4. Dehqonov A. Tarixni o‘qitishdan maqsad nima // <https://yuz.uz/news>.; Oblomurodov N. Yangi O‘zbekistonda O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishning ayrim jihatlar haqida // Yangi O‘zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari. 2022-yil aprel. – B. 154-159.
5. Ergashev S.M. O‘zbekiston maorif tizimida Bosh Vaqf boshqarmasining o‘rni (XX asrning 20-yillari). Tarix fan bo‘yicha falsafa doktori ilm daraja disser. – Samarqand. 2023. – 132 b.
6. G‘afurov U.T. O‘zbekiston musulmonlari idorasi diniy ta‘lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi (1943-2003-yillar). Tarix fan bo‘yicha falsafa doktori ilm daraja disser. – Toshkent. 2023.
7. Jo‘raqulov O. Qarshi davlat universiteti. – Toshkent: Fan, 1999; Sodiqov T., Rasulov T., Begmatova N., Universitet tarixidan lavhalar 1 qism. – Qarshi: “Qarshi davlat universiteti” nashriyoti, 2013.
8. Mamarasulov D.T. Samarqand davlat universitetining tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari. Tarix fan bo‘yicha falsafa doktori ilm daraja disser. – Samarqand. 2023. – 151 b.
9. O‘zbekiston tarixchilari. I jild (bibliografik ma‘lumotnoma). – Toshkent: G‘an va texnologiya, 2012, – B. 3.
10. Shamsutdinov R. Bobur nomidagi Andijon Davlat universitetining tarixiy ildizlari, tashkil topishi va faoliyati. – Toshkent: Sharq, 2014. – 460 b.
11. Shayakubov Sh.Sh. O‘zbekiston tarixini o‘rganish va o‘qitishning dolzarb masalalari

// Tarix va hozirgi zamon. Toshkent davlat jahon tillari universiteti. – Toshkent. 2017-yil 6 noyabr.

12. To‘raeva M. O‘zbekistonda madaniy hayot: muammo va oqibatlar (1920-1940 yy.) (Janubiy viloyatlar misolida). Tarix fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2001. – 149 b.; Quvvatova N. XX asrning 20-80 yillarida O‘zbekiston qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (Qashqadaryo viloyati misolida). Tarix fan. nom. diss. – Toshkent, 2010. – 146 b.

13. Tursunov I.Yu. O‘zbekiston maorifchilarining istiqlol yo‘lidagi kurashi tarixidan (1917-1930 yillar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 1994 yil. – 217 b.

14. Umurov H. Universitetimiz chinorlari (Xotira va yesselar). – Samarqand: SamDU, 2017. – 84 b.

15. Xalilova Z. 1945-1991 yillarda O‘zbekistonda islom dini ta’limining holati va tarixshunosligi. Tar.fan.fals.dok. (PhD) ...diss. – Toshkent, 2019.

16. XX asrning dastlabki o‘ttiz yilligida O‘zbekistonda tarix fani (Tarixshunoslik ocherklari). – Toshkent, 1994. 1-qism. – 207 b. 2-qism. – 455 b. Mustafaeva N. XX asrda O‘zbekistonda madaniyat va tafakkur. Tarixshunoslik tahlili. – Toshkent: Navro‘z. 2014. – 334 b.

17. Yusupov R. O‘zbekistonda XX asrning 40-80 yillarida musulmon diniy tashkilotlari va ulamolar faoliyati (MDA ma’lumotlari asosida): Tar. fan. nom. ...diss. – Andijon, 2008: Salmonov A. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati (1917-1960 yillar). – Toshkent: Tafakkur, 2015.